

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 346 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
<b>Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich</b>	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari .....	24
<b>Abdullayev Farxod Ozodovich</b>	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
<b>Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna</b>	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
<b>Idirisov Alisher Otajonovich</b>	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
<b>Abdiev Jaxongir Ibragimovich</b>	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
<b>Djumaniyazov Marks Quranbaevich</b>	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
<b>Shaislamova Nargiza Kabilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
<b>Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna</b>	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi .....	79
<b>Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich</b>	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
<b>Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich</b>	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
<b>Абдиуалиева Гулзада Азатовна</b>	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
<b>O'tkirova Bonu Azamat kizi</b>	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
<b>Umarov Abduvaxob Tursunovich</b>	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
<b>Mirkomil Boboyorov Murodullaevich</b>	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
<b>Imomov Xolmurod Norqul o'g'li</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
<b>Maksudov Abdumalik Xodievich</b>	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
<b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
<b>Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li</b>	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maxmudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari .....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach .....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari .....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
<b>Mannonov Shahzod Istam ugli</b>	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
<b>Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich</b>	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
<b>Муминов Фазлиддин Хусниддин угли</b>	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана .....	279
<b>Касимова Зилола Гуламиддиновна</b>	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari .....	287
<b>Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich</b>	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni .....	291
<b>Mirpulatova Luiza Mansurovna</b>	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari .....	294
<b>Karabaev Nodir Abduhamidovich</b>	
Значение business city как инфраструктурного объекта .....	303
<b>Солиева Умида Алишер кизи</b>	
The potential for the development of wage labor as a factor .....	308
<b>Usmanov Ilkhom Achilovich</b>	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
<b>Musayeva Shoira Azimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna</b>	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari .....	318
<b>Mavrulov Ravshan Ne'matjonovich</b>	
Kichik korxonalarni rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
<b>Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari .....	328
<b>Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li</b>	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии .....	331
<b>Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолитдинова</b>	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
<b>Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li</b>	



# IPOTEKA BOZORIDA INVESTISION MUHITNI YAXSHILASH YO‘LLARI

**Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o‘g‘li**

“Ipoteka bank” ATIB Kredit tasdiqlash direksiyasi Chakana va kichik-o‘rta biznes andarraytingi departamenti katta eksperti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ipoteka bozorining investision muhitini yaxshilash istiqbollarini o‘rganishda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari tadqiq qilingan. Ipoteka bozorida foydalanish istiqbollarini tadqiq etishda ipoteka bozorining tarkibiy tuzilishi, moliyaviy instrumentlarining tashkiliy mexanizmlari va xususiyatlari tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Investision muhit, Ipoteka bozori, uy-joy, ipoteka krediti, tijorat banklari, kredit portfeli, davlat budejti, resurs.

**Abstract:** This article examines the research of foreign and domestic researchers in the study of prospects for improving the investment environment of the mortgage market. In researching the prospects of using the mortgage market, the structural structure of the mortgage market, organizational mechanisms and features of financial instruments were analyzed. Relevant conclusions were formed based on the analysis.

**Key words:** Investment environment, Mortgage market, housing, mortgage loan, commercial banks, loan portfolio, state budget, resource.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются исследования зарубежных и отечественных исследователей по изучению перспектив улучшения инвестиционной среды ипотечного рынка. При исследовании перспектив использования ипотечного рынка была проанализирована структурная структура ипотечного рынка, организационные механизмы и особенности финансовых инструментов. На основе анализа были сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** Инвестиционная среда, Ипотечный рынок, жилье, ипотечный кредит, коммерческие банки, кредитный портфель, государственный бюджет, ресурс.

## KIRISH

Har qanday jamiyatda ham aholi turmush darajasini yaxshilash, farovonlik darajasini oshirish hukumatning asosiy masalalaridan biri hisobdanadi. Ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda bu ko‘rsatkich muhim omillardan biridir. Mustaqillikning ilk yillaridan to hozirgi kunga qadar respublikamizda aholi soni davomli ravishda o‘shib keldi.

Kelgusi yillarda ham mamlakatda yuqori va muttasil demografik o‘shish yangi uy-joylarga bo‘lgan talabni rag‘batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. 2024-yil 1-iyul holatiga O‘zbekistonda doimiy aholi soni 37,1 mln. kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga o‘sgan.

Halqaro valyuta fondi tahlillariga ko‘ra 2029-yilgacha O‘zbekistonda doimiy aholi soni 41 mln. nafarga etishi va ishsizlik darajasi 3,8 foizgacha tushishi kutilmoqda<sup>1</sup>.

Birlashgan millatlar tashkilotining Evropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan tahlillarda, demografik o‘shish va aholaning uy-joy bilan ta‘minlash darajasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ko‘chmas mulk bozorida barqaror muvozanatni shakllantirish uchun 2015–2025-yillar davomida har yili o‘rtacha 150 mingta kvartiralar qurilishi lozimligi qayd etilgan<sup>2</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

1 International Monetary Fund. (July, 2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-2024-Article-IV-Consultation-Press-Release-and-Staff-Report-551710>

2 UNECE. (2015 y). Country Profiles on Housing and Land Management. Page 33. [https://unece.org/DAM/hlm/documents/Publications/CP\\_Uzbekistan\\_withCorr.EN.pdf](https://unece.org/DAM/hlm/documents/Publications/CP_Uzbekistan_withCorr.EN.pdf)



## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimizda uy-joy sektorini rivojlantirish zarurati ipoteka kreditlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining barcha qatlamlari uchun bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida 2020-yili 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886 sonli Farmoni qabul qilindi.

2021-yildan boshlab aholining uy-joy sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan arzon uy-joylar dasturi nihoyasiga etib, endilikda bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlarini moliyalashtirish jarayoniga o'tildi. Bunda kredit foiz stavkalari imtiyozli foiz stavkada (2017–2019-yil davlat dasturida aholiga dastlabki 5 yili 7 foiz, qolgan 15 yili esa ariza yozilgan kundagi asosiy stavkada rasmiylashtirilgan) emas, tijoriy stavkada (tijorat banklari asosiy stavkaga 4 foiz qo'shgan holda) aholiga ipoteka kreditlari rasmiylashtirish jarayoni boshlandi.

Joriy yil 1 yarim yilligida tijorat banklari tomonidan aholiga umumiy qiymati 6 883,9 mlrd.so'm miqdorida ipoteka kreditlari ajratilgan bo'lib, 1 iyul holatiga banklardagi kredit qoldig'i 61,8 trln so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21 foizga o'sganligini quyidagi jalvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval. Ipoteka kreditlarining asosiy ko'rsatkichlari<sup>3</sup>.


Ko'rsatkichlar	2022-yil 6 oyi	2023-yil 6 oyi	2024-yil 6 oyi
Ajratilgan ipoteka kreditlari, mlrd. so'mda	6 531,1	7 008,1	6 883,9
- birlamchi bozorda	5 336,9	3 995,1	3 867,8
- ikkilamchi bozorda	1 194,2	3 013,4	3 016,1
"Yangi tartib" doirasida ajratilgan ipoteka kreditlari, mlrd. so'mda	3 629,9	3 205,9	3 238,8
"Qishloq qurilish invest" IK va "O'zshahar qurilish invest" IK uylariga, mlrd. so'mda	1 426,9	681,8	432,3
Bank o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari, mlrd. So'mda	1 384,9	2 034,5	2 366,0
Kompaniya shartlari doirasida ajratilgan ipoteka kreditlari, mlrd. So'mda	89,4	1 086,3	847,1
Ipoteka krediti qoldig'i	01.07.2022-yil	01.07.2023-yil	01.07.2024-yil
trln. So'mda	40,5	51,1	61,8

Bunda qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholashda skoring tahlillarining takomillashuvi norasmiy daromadga ega bo'lgan fuqarolarning ipoteka krediti olish imkoniyatini kengaytirmoqda. Bundan tashqari ulush kirish orqali jismoniy shaxslarga ipoteka krediti ajratilishi ham ipoteka kreditlari salmog'ini o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Banklar kesimida ipoteka bozorida yuqori faollik asosan Biznesni boshqarish banki, Ipoteka bank va hamda Xalq bankida saqlanib qolmoqda.

Ushbu banklar kredit portfelida ipoteka kreditining ulushi 20-47 foizni tashkil etadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

3 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида тайёрланди.




1-rasm. Ipoteka kreditlari qoldig'ining tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi ulushi (foizda)<sup>4</sup>.

Kredit portfelida ipoteka krediti qoldig'i sezilarli darajada Xalq banki (10%) va Ipoteka banki (3%) da sezilarli darajada o'sgan.

Kreditlash jarayonini oshishi, moliyalashtirishga ortiqcha resurs talab qilishi tabiiy holat. Ipoteka bozori, kreditlari foiz stavkasi, turar joylar bahosi erkin bozor tamoyillariga o'tgan bo'lsada, moliyalashtirish manbasi hisoblangan resurs masalasi bozor tamoyillari asosida emas, balki davlat byudjetidan qoplanishi davom etmoqda.

2021–2023-yillar va 2024-yil 6 oylikda davlat byudjeti holatini quyidagi rasmda tahlil qilishimiz mumkin.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadi va xarajati tahlili, (trln.so'm)<sup>5</sup>.


Ko'rishimiz mumkinki, yildan yilga daromad va xarajat orasidagi tafovut ortib bormoqda. O'z o'rnida xarajatlarda tijorat banklari aholiga ipoteka kreditlari rasmiylashtirish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobida (adabiyotlarda "Yangi tartib" doirasida degan jumla qo'llaniladi) xarajatlarda ham yildan yilga o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. "Yangi tartib" doirasidagi dasturning ilk davrlarida davlat byudjetidan 4,6 trln.so'm moliyalashtirilgan bo'lsa, 2024-yilning 6 oylikda 3,2 trln.so'm tijorat banklariga resurs sifatida davlat byudjetidan moliyalashtirilgan.

Aholi sonining o'sishi, kreditlash jarayonining ortishi, davlat byudjetida daromad va xarajatlarni farqini o'sishi, ipoteka bozorini resurs bilan ta'minlash jarayonining qiyinlashishiga olib kelishi mumkin. Resursni moliyalashtirish davlat byudjetiga yuklanar ekan, xarajatlarni optimallashtirish maqsadida hukumat cheklavlari kiritishga majbur bo'ladi. Buni bir dalili sifatida 2024-yilgi "Yangi tartib" doirasida davlat dasturidan boshlab, keyingi davrlarda har bir fuqaro bir marta foydalanish talabi kiritildi. 2025-yil va undan keyingi yillar dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar – Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshgan qismiga to'lanishi belgilandi<sup>6</sup>.

4 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг маълумотлари асосида тайёрланди.

5 Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида тайёрланди.

6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2024 йилда ипотека кредитларини ажратиш механизмларини такомиллаштириш ва аҳолининг уй-жой шaroитларини яхшилашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-70 Фармони, 30.04.2024 йил.



3-rasm. 2021–2023-yillar va 2024-yil I yarim yillikda “Yangi tartib” doirasida ajratilgan ipoteka kreditlari, (mlrd. so‘mda)<sup>7</sup>.

Bunday cheklovlar kiritilishi, kreditlash jarayonini sekinlashishiga, ko‘p qavatli turar joylar qurilishini to‘xtatishiga, davlatni ipoteka bozorida chekinishi natijasida bozorda kuchli salbiy tebranish vujudga kelish ehtimolini kuchaytiradi. Davlatning ipoteka bozorida chekinishi bozorga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bunday vaziyatda bozor holatini normal davom ettirishi uchun ham resurs bilan doimiy ta‘minlanishi zarur.

Hozirgi davrda ipoteka bozorini moliyalashtirishda davlat byudjetiga 3 tomonlama yuklama tushmoqda. Davlat aholiga uy-joyni kredit hisobiga sotib olish uchun tijorat banklariga uzoq muddatli resurs bermoqda. Ikkinchi tomondan, quruvchilarga uy-joy qurish uchun “Yangi O‘zbekiston” massivlarida ko‘p qavatli turar joy qurilishi uchun yana banklarga resurs bermoqda, banklar uni quruvchiga uy-joy qurilishi uchun yana kredit liniyasi ochmoqda. Va oxirgi bosqichda aholiga ajratilayotgan kredit foizining bir qismiga va boshlang‘ich to‘lov uchun 30 mln.so‘m subsidiya to‘laymoqda.

Quruvchi tomonidan turar joylarni qurilishini ko‘paytirish, bozorni doimiy resurs bilan ta‘minlanishi, turar joy qurilishini sifat jixatidan va belgilangan muddatda bitkazilishini nazorat qilish va aholini jamg‘armalarini depozit sifatida jamg‘arish, uni ipoteka bozoriga yo‘naltirish orqali bozorni ham narx ham sifat tomonidan boshqarish imkonini beradi. Bozor tamoyiliga o‘tish orqali, turar joy bahosi so‘nggi yillarda shiddatli tarzda o‘sib bormoqda. Bundan tashqari ko‘pchilik qurilish tashkilotlari aholi jamg‘armalarini to‘lov sifatida qabul qilib, turar joyni o‘z vaqtida bitkazmayotganlik holatlari ham ko‘paymoqda. Bu kabi salbiy omillarni ko‘payishi bozor ishtirokchilarini investisiya jarayoniga salbiy ta‘sir qilmasdan qolmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda, davlat byudjetidan ipoteka kreditlarini moliyalashtirishga yo‘naltirayotgan mablag‘larni optimallashtirish, aholi qo‘lidagi jamg‘armalarni tijorat banklariga depozit sifatida jamg‘arishni ortirish, qurilish tashkilotlari o‘z majburiyatlari o‘z vaqtida bajarishini sifat va vaqt tomonidan nazorat qilish maqsadida quyidagi taklifni bermoqchimiz:

- davlat subsidiyani kreditni yoki uni foiz va boshlang‘ich badalini moliyalashtirishga emas, balki aholining tijorat banklaridagi omonatiga yo‘naltirishi zarur. Bugungi kunda tijorat banklarida omonat foiz stavkalari muddatiga qarab 20-25 % atrofida belgilanmoqda. Muddatni 1-2 yil emasda, 6-8 yil davrga mo‘ljallab, tijorat foizidagi omonat stavkalariga 5-8 % subsidiya to‘lashni joriy qilish zarur. Omonat stavkasini yuqori daromadliligi aholidagi jamg‘armalarni banklarda jamlanishiga sabab bo‘ladi;

- Qurilish tashkilotlari qurilishni faqatgina o‘z mablag‘lari hisobiga emas, balki qurilishda bajarilgan ishlarni ulushiga qarab tijorat banklari kredit hisobidan moliyalashtiradi. Bunda turar joy sifati, belgilangan vaqtda bitkaziliga zamin yaratadi.

- Turar joy bahosini qimmatligi hisobga olgan holda, hamda aholi jamg‘armasiga subsidiya qoplanishi orqali bosqichma bosqich ipoteka krediti o‘rniga bo‘lib to‘lash jarayoniga o‘tishni taklif qilamiz. Chunki Toshkent shaharda deyarli 50-60 foiz qurilish tashkilotlari bo‘lib to‘lash orqali sotish jarayonini taklif qilishmoqda. Bu orqali iqtisodiyotda pul massasi ortishi sekinlashadi, inflyasiya ko‘rsatkichi pasayadi. Kreditlash jarayonining iqtisodiyotda ko‘payishi ham pul massasining ortishiga, inflyasiyani kuchayishiga sabab bo‘ladi. Yoki kreditlash muddatini kamaytirish zarur, muddat qancha qisqa bulsa, pul aylanmasi shuncha tezlashadi. Kredit muddatini qisqarishi aholi tomonidan boshlang‘ich to‘lov miqdorini ko‘proq shakllanishiga turtki beradi.

7 Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида тайёрланди.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. International Monetary Fund. (July, 2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation-Press Release; and Staff Report <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-2024-Article-IV-Consultation-Press-Release-andStaff-Report-551710>
2. UNECE. (2015 y). Country Profiles on Housing and Land Management. Page 33. [https://unece.org/DAM/hlm/documents/Publications/CP\\_Uzbekistan\\_withCorr.EN.pdf](https://unece.org/DAM/hlm/documents/Publications/CP_Uzbekistan_withCorr.EN.pdf)
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида тайёрланди.
4. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари асосида тайёрланди.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2024 йилда ипотека кредитларини ажратиш механизмларини такомиллаштириш ва аҳолининг уй-жой шaroитларини яхшилашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-70 Фармони, 30.04.2024 йил.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

